



# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib



Yirik  
korporatsiyalar




Kichik biznes va xususiy  
tadbirkorlik subyektlari


## Dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyati bo'yicha 2021- yilning yanvar oylarida chakana savdo tovar 937,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oylariga nisbatan 1,7 % ga kamaygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 64,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 61,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 873,0 mlrd. so'mni (2,8% ga ko'paygan. shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 105,5 mlrd. so'mni (1,2 % ga ko'paydi) tashkil etdi.

## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda








## UMUMIY MA'LUMOT

Namangan viloyati bo'yicha 2021- yilning yanvar toylarida chakana savdo tovar aylanmasi **937,9** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2020- yil yanvar oylariga nisbatan **1,7** % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha viloyatlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **93,1%** va yirik korxonalar hissasiga **6,9 %** to'g'ri keldi.



## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar oylari yakuniga ko`ra, 873,0 mlrd.so`m ni tashkil etib, 2020- yil yanvar oylariga nisbatan 2,8% ga ko`paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 93,1% ni tashkil etdi.


Bu ko`rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Kosonsoy (98,5 %), Mingbuloq (98,1 %), Yangiqo`rg`on (97,0 %), Chortoq (96,1 %), Namangan(95,9 %) va Namangan shahar (94,2 %) tumanlarida yuqori bo`lgan.





2020- yilning yanvar oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kypayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Yangiqo'rg'on (109,9%) va Namangan (100,4 %) tumanlarida qayd etildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	937,9	98,3	64,9	61,6	873,1	102,8
Namangan.sh	463,0	100,0	27,0	73,2	436,0	102,3
tumanlar:						
Mingbuloq	25,4	100,2	0,5	100,5	24,9	100,2
Kosonsoy	41,5	100,3	0,6	97,3	40,9	100,4
Namangan	41,0	100,4	1,7	113,1	39,3	99,9
Norin	35,9	100,2	3,4	81,1	32,5	102,7
Pop	52,4	100,3	4,6	89,0	47,8	101,6
To'raqo'rg'on	48,4	100,0	3,9	142,4	44,4	97,4
Uychi	41,7	91,6	2,8	30,9	38,9	106,9
Uchqo'rg'on	34,3	100,3	2,6	88,9	31,8	101,4
Chortoq	32,2	87,6	1,3	14,3	30,9	111,0
Chust	76,8	85,8	15,1	47,7	61,8	106,4
Yangiqo'rg'on	45,3	109,9	1,4	116,7	43,9	109,7

### Yirik korxonalar



Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar oylariga nisbatan 38,4% ga kamaydi va **64,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **6,9%** ulushiga to'g'ri keladi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **873,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar oylariga nisbatan **2,8** % ga ko'paygan. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,1** % ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kosonsoy (98,5 %), Mingbuloq (98,1 %) Yangiqo`rg`on (97,0 %), Chortoq (96,1 %), Namangan(95,9 %) tumanlari va Namangan.sh (94,2 %) yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (19,6 %), Norin (9,5 %) Pop (8,8 %), tumanlarida To`raqo`rg`on (8,2 %) tumanlarida kuzatildi.



**NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON  
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yil yanvar oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **330,4** ming so'm (2020-yil yanvar oylariga nisbatan **3,7** % ga kamaygan). Yangiqo'rg'on (107,7 %), tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri (731,4 ming so'm), Chust (287,7 ming so'm) va Pop (237,5 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar oylariga nisbatan, % da
Namangan viloyati	330,4	96,3
Namangan.sh	731,4	97,8
tumanlar:		
Mingbuloq	199,6	98,1
Kosonsoy	197,0	98,2
Namangan	227,2	98,2
Norin	218,0	98,4
Pop	237,5	98,6
To'raqo'rg'on	212,5	97,9
Uychi	194,4	89,6
Uchqo'rg'on	198,4	98,5
Chortoq	160,5	85,9
Chust	287,7	84,2
Yangiqo'rg'on	206,2	107,7



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2021- yilning yanvar oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,7 %** ni tashkil etib, **15,9 mlrd.** so‘mga yetdi va 2020-yil yanvar oylariga nisbatan **4,0 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **86,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining  
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	15,9	104,0	2,1	127,9	13,8	101,2
Namangan.sh	9,8	103,9	2,0	124,4	7,8	99,7
tumanlar:						
Mingbuloq	0,4	103,7	-	-	0,4	103,7
Kosonsoy	0,4	104,2	-	-	0,4	104,2
Namangan	0,8	119,0	0,1	779,0	0,6	100,3
Norin	0,4	100,4	-	-	0,4	100,4
Pop	0,8	104,6	-	-	0,8	104,6
To‘raqo‘rg‘on	0,6	100,8	-	-	0,6	100,8
Uychi	0,3	105,7	0,0	13,6	0,3	107,5
Uchqo‘rg‘on	0,6	103,5	-	-	0,6	103,5
Chortoq	0,5	103,0	-	-	0,5	103,0
Chust	1,2	99,7	-	-	1,2	103,4
Yangiqo‘rg‘on	0,3	103,2	-	-	0,3	103,2



## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2021- yilning yanvaroylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **233,3** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2020- yil yanvar oylariga nisbatan **12,8 %** ga ko'paygan Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **41,6** mlrd. so'mni (**93,3 %** ga ko'paygan ), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **191,8** mlrd. so'mni (**3,5 %** ga ko'paygan).


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Norin (152,4m.), Uchqo'rg'on (104,3m), Chust(5,1 m.) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari, Uychi (188,3), Chortoq (129,0), To'raqo'rg'on (116,2), viloyatlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	233,3	112,8	41,6	193,3	191,8	103,5
Namangan.sh	115,5	109,5	12,5	217,0	103,0	103,3
tumanlar:						
Mingbuloq	3,9	101,2	0,0	0,0	3,9	101,0
Kosonsoy	11,9	105,6	0,0	232,7	11,9	105,6
Namangan	8,0	101,5	0,1	61,9	8,0	102,0
Norin	7,4	102,6	0,0	0,0	7,4	102,6
Pop	9,9	102,3	0,0	137,2	9,9	102,2
To'raqo'rg'on	23,5	116,2	12,5	132,0	11,0	102,4
Uychi	20,2	188,3	10,7	500,9	9,6	110,9
Uchqo'rg'on	3,0	102,7	0,1	147,1	2,9	101,9
Chortoq	14,2	129,0	4,3	318,6	9,8	102,2
Chust	6,4	85,3	1,4	52,7	5,0	103,0
Yangiqo'rg'on	9,4	103,6	0,0	0,0	9,4	103,6

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar oylari yakuniga ko'ra, **191,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oylariga nisbatan **3,5** % ga kupaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **82,2** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo`rg`on (100,0%), Norin va Kosonsoy (99,9 %), Mingbuloq (99,7 %) va Pop (99,6 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa To`raqo`rg`on(46,8 %) tumaniga to'g'ri keldi.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi  
boshqarmasi**  
Тел : (69)-211-72-00